

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMY
KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BABANAZAROVA SARBINAZ KARAMATDINOVNA

**AGROSANOAT MAJMUASI KORXONALARI ISHLAB CHIQARISH
SALOHIYATINI SAMARALI BOSHQARISH**

08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Babanazarova Sarbinaz Karamatdinovna

Agrosanoat majmuasi korxonalari ishlab chiqarish salohiyatini samarali
boshqarish..... 3

Бабаназарова Сарбиназ Караматдиновна

Эффективное управление производственным потенциалом
предприятий агропромышленного комплекса 27

Babanazarova Sarbinaz Karamatdinovna

Effective management of the production potential of enterprises in the
agroindustrial complex 55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 60

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMY
KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BABANAZAROVA SARBINAZ KARAMATDINOVNA

**AGROSANOAT MAJMUASI KORXONALARI ISHLAB CHIQARISH
SALOHIYATINI SAMARALI BOSHQARISH**

08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5336 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Toshmatov Rustam Xusanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kaxramonov Xurshidjon Shuhrat o'g'li
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat
universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat uniyersiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "16" fevral soat 16 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (442 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "02" fevral kuni tarqatildi.

(2026-yil "02" fevral dagi № 111 raqamli reyestga bayonnomasasi).



J.K.Sauxanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor



R.B.Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha faslafa doktori, dotsent

K.Ubaydullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab faqatgina statistik ko‘rsatkich bo‘lib qolmasdan, balki har yili ortib borayotgan aholining asosiy ehtiyojlariga bo‘lgan talabini namoyon etmoqda. Bu esa agrosanoat majmuasi korxonalariga bo‘lgan zamон talabining oshishiga va ularning dunyo miqyosidagi talablarga moslashishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur turdagи korxonalar ortib borayotgan bozor ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarish hajmini oshirishga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga, ta’minot zanjirlarini optimallashtirishga, boshqaruv samaradorligini oshirishga va yetkazib berish ko‘lamini kengaytirishga majburdirlar. Ayniqsa, “so‘nggi yillarda ro‘y berayotgan geosiyosiy vaziyatlar, global pandemiya, iqlim o‘zgarishlari va kechayotgan yuqori inflyatsiya hamda ishsizlik darajasining oshishi tufayli hozirda dunyoda 690-780 mln.dan ortiq odamlar ochlik muammosiga duch kelmoqda”¹. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish ko‘lamini oshirish, oziq-ovqat taqchilligiga barham berish har bir davlat barqarorligi va farovonligining asosidir.

Jahonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning iqtisodiy rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari agrosanoat majmuasi korxonalarining raqobatbardoshligini ta’minalash, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, innovatsion faolligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bilan bevosita bog‘liq. Jumladan, mazkur sohada ilmiy izlanishlar samarador texnologik yangiliklarni joriy etish, energiya va resurs tejamkor ishlab chiqarishni keng tatbiq etish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag‘batlantiruvchi institutsional va tashkiliy-iqtisodiy muhitni shakllantirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va ishlab chiqaruvchi korxona o‘rtasida innovatsion infratuzilma asosida hamkorlik aloqalarini mustahkamlashni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, agrosanoat majmuasi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, venchur moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish mazkur sohadagi iqtisodiy faollikni oshirishning muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda ham aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minalash dolzarb masalalardan biri bo‘lib, 2023-yilda respublika bo‘yicha sanoat assosida 65174,7 mlrd. so‘m oziq-ovqat mahsulotlari va 17968,3 mlrd. so‘m ichimliklar ishlab chiqarilgan, shuningdek 404648,6 mlrd. so‘m qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilgan bo‘lsada, shu davrda 1962,4 mlrd. so‘m oziq-ovqat mahsulotlarini import qilinib, 4141,8 mlrd. so‘m oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilingan². Ushbu raqamlar mamlakatda agrosanoat majmuasini yanada rivojlantirib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi yirik eksportyor davlatlar qatoriga qo‘shilish orqali qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini daromadli tarmoqqa aylantirish hamda mamlakat agrosanoat-majmuasi iqtisodiyotini yanada rivojlantirish imkonini belgilaydi.

¹ The Food and Agriculture Organization (FAO) - <https://www.fao.org/about/about-fao/en/>

² O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi - <https://stat.uz/uz/>

So‘nggi yillarda mamlakatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash hajmini oshirish hamda mazkur sohada faoliyat yurituvchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari bo‘yicha jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko‘rsatkichining 25 foizdan yuqori bo‘lishini ta’minlash kabi muhim vazifalar belgilab berilgan³. Mazkur vazifalarning muhimligi agrosanoat majmuasi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi va shu bilan birga tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagagi PF-36-son «Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2023-yil 28-dekabrdagi PF-217-son «Iste’mol bozorlarida asosiy turdagи oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2021-yil 22-dekabrdagi PQ-58-son «Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 9-sentyabrdagi PQ-471-son «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan tulaqonli ta’minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2020-yil 18-martdagи PQ-4643-son «Agrar va oziq-ovqat sohalarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019-yil 29-iyuldagи PQ-4406-son «Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda oziq-ovqat ta’minoti zanjiri tizimini takomillashtirish borasida xorijiy olimlardan Wedowati E.R., Singgih M.L., Gunarta I.K., Matthew N.O., Sadiku S.M., Tolulope J.A., Clercq M.D., Vats A., Biyel A., Panova A.V., Bozsik N., Cubillos T.J., Stalbek B., Vasa L., Magda R., Sandu I.S., Nechayev V.I., Voiku I.P., Ahmad Zia Wahdat, Jayson L., Sutherland Ch., Le Vallee J. C., Charlebois S., Bonetti M.,

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” – <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

Hadjidimitriou N., Peroni M., Zanoli A., Katajajuuri J.M., Akkerman R., Yasin Li J., Yun-Hwa P., Qilong Zou, Wu K.lar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan⁴.

Shuningdek, mazkur tadqiqot mavzusi bo'yicha MDH mamlakatlari olimlaridan Sardak S.E., Ogdanskiy K.N., Trifonova O.D., Kulev D.X., Dotsenko V.A., Klokov Y.V., Chichikin A.A., Gusalova Y.V., Gnatovskaya Y.S., Belyayev N., Donskova L., Atayev K.B., Rastorguyev P.V., Rudnev M.Y., Gorodilin D.Y., Vasileva N.A., Tleuberdinova A.T., Salibekova P.K., Jukova Y.S., Kuzmina A.O., Zhemokleeva A.S., Orinbekova G.A., Tulegenova J.U., Pyagay A.A., Atirbekov A.Sh., Dovidenco V.A., Akimova R.A. va I.Gusakovalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan⁵.

O'zbekistonda agrosanoat majmuasini rivojlantirish, aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish,

⁴ Wedowati E.R., Singgih M.L., Gunarta I.K. Production system in food industry: a literature study // 6th International Conference on Operations and Supply Chain Management, Bali, 2014. R.274; Matthew N. O. Sadiku | Sarhan M. Musa | Tolulope J. Ashaolu "Food Industry: An Introduction" Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd), ISSN: 2456-6470, Volume-3 | Issue-4, June 2019, pp.128-130; M. De Clercq, A. Vats, A.Biyel, Agriculture 4.0: The Future of Farming Technology (2018); A.V. Panova, International Research Journal, 7 (97) (2020); Bozsik N, Cubillos T. JP, Stalbek B, Vasa L, Magda R (2022) Food security management in developing countries: Influence of economic factors on their food availability and access. PLoS ONE 17(7): e0271696.; Sandu I.S., Nechayev V.I., Voiku I.P. State support for the digital transformation of agriculture in the region: a methodological approach // Economics of agricultural and processing enterprises.- 2019.- No12.- P.66-70.; Ahmad Zia Wahdat, Jayson L. Lusk. The Achilles heel of the U.S. food industries: Exposure to labor and upstream industries in the supply chain // American Journal of Agricultural Economics. Volume 105, Issue 2, March 2023, p.624-643; Sutherland Ch. et al. Consumer insights on Canada's food safety and food risk assessment system // Journal of Agriculture and Food Research Volume 2, December 2020, 100038; Le Vallee J. C., Charlebois S. 2014 World Ranking: Food Safety Performance. — Conference Board of Canada= Le conference board du Canada, 2014.; M. Bonetti, N. Hadjidimitriou, M. Peroni, A. Zanoli. The Food Industry in Italy // National Institute of the Agrarian Economy. R.269-278.; Katajajuuri J.-M. et al. Food waste in the Finnish food chain // Journal of Cleaner Production. Volume 73, 15 June 2014, Pages 322-329; Akkerman R. et al. Development and application of a decision support tool for reduction of product losses in the food-processing industry // Journal of Cleaner Production. Volume 16, Issue 3, February 2008, Pages 335-342; Yasin N.H.M. et al. Food waste and food processing waste for biohydrogen production: a review // Journal of Environmental Management. Volume 130, 30 November 2013, Pages 375-385; Jian-rong Li., Yun-Hwa P. Hsiyeh. Traditional Chinese food technology and cuisine // Asia Pacific J Clin Nutr 2004;13 (2):147-155; Qilong Zou. An Analyze of Chinese Online Fresh Food Industry // Journal of Economics, Business and Management, Vol. 10, No. 3, June 2022. P.185-189; K. Wu et al. Understanding Chinese tourists' food consumption in the United States // Journal of Business Research 69 (2016) 4706-4713.

⁵ Сардак С.Э., Огданский К.Н., Трифонова О.Д. Глобальная и региональная продовольственная безопасность: концепт, факторы, организационно-экономические решения // Економика и Суспльство. № 17, 2018. С.53-54.; Кулев Д.Х., Доценко В.А., Клоков Ю.В. О структуре потребления продуктов питания и жидкостей как компонентов пищи / Международная научно-практическая конференция «Продовольственная безопасность и научное обеспечение развития отечественной индустрии конкурентоспособных пищевых ингредиентов». Сборник материалов, Санкт-Петербург, 2015.; Чичикин А.А. Пищевая промышленность в системе обеспечения продовольственной безопасности. Автореферат Дисс. к.э.н., М.: РАНИЭ. — 2009г.; Гусарова Ю.В. Введение в технологию продуктов питания: учеб. пособие. — Тольятти: ТГУ, 2009. -152 с.; Гнатовская Ю.С. Совершенствование государственного регулирования пищевой промышленности (на примере Хабаровского Края). Автореферат Дисс. к.э.н., Х.: ХГФЭП. — 2009г. С.6; Беляев Н., Донскова Л. Фуд Сектор Hew Тechnologies and Инновации: Приоритет фуд Вестор Девелопмент / ШС Вэб оф Конференсэс 93, 04017 (2021), р.5; Атаев К.Б. Организация коммерческой деятельности предприятий пищевой промышленности. Автореферат дисс. к.э.н., Санкт-Петербург: СПУЭИ, 1994г. С.14; Растрогуев П.В. Особенности формирования систем контроля качества и безопасности продукции АПК в отдельных странах. Экономические вопросы развития сельского хозяйства Беларуси. 2013. 1(41):159-170.; Руднев М.Ю. Организация и управление на предприятиях пищевой и перерабатывающей промышленности. ФГБОУ ВО «Саратовский ГАУ». — Саратов, 2018. — 70 с.; Городилин Д.Ю. Стратегия экономического роста пищевой промышленности в условиях развивающегося рынка. Автореферат дисс. к.н.э., Саратов: СГСЭУ, 2005. С.7;

qayta ishslash sanoati tarmog‘ini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importini qisqartirish va eksportini oshirish masalalari Abdug‘aniyev A.A, Berkinov B.B., Maxmudov N., Abduganiyev O.A., Abulkosimov X.P., Bekenov S.S., Mamaraximov B.E., Kobilov Sh.R., Saidova D.N., Rasulov T.S., Rustamova I.B., Nazarova F., Sauxanov J.K., Ubaydullayev K., Qalmuratov B.S., Adilchayev R.T., Saidaxmedova N.I., Umarov I.Y., Tolipova B.F., Mamatqulov M.Sh., Ziyovuddinov Sh., Xamrayev N.R. kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan⁶.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlarida mamlakatning qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlanishi, aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha muammolar atroflicha ko‘rib chiqilgan. Biroq, aynan agrosanoat majmuasi korxonalarini boshqarish, aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash hamda mazkur korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish alohida tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqilmagan, shu bois mazkur yo‘nalish tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F-1-22-son «Qoraqalpog‘istonning ayrim tumanlarida ozuqa va ozuqa miqdori, ulardan foydalanish va chorvachilik xo‘jaliklarini boshqarish metodlari» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi agrosanoat majmuasi korxonalari ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

agrosanoat majmuasini rivojlanishining nazariy asoslarini tadqiq etish;

agrosanoat majmuasi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni va ishlab chiqarish salohiyatini baholash uslubiyotini tadqiq etish;

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi va uni qayta ishslash tarmog‘i rivojlanishi holati tahlilini amalga oshirish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiy va agrosanoat majmuasi rivojlanishi ko‘rsatkichlari tahlilini amalga oshirish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan agrosanoat majmuasi korxonalari faoliyatini vertikal va gorizontal tahlil asosida baholash;

agrosanoat majmuasi korxonalari ishlab chiqarish salohiyatini ko‘p omilli bog‘lanishlar asosida modellashtirishni amalga oshirish;

agrosanoat majmuasi korxonalarini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan boshqarish bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlari ko‘rsatish.

⁶ Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniyev A. A. – qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti — (darslik) — T.: TDIU, 2006 – 302 bet; Berkinov B.B., Axmedov U.K. Aholini oziq-ovqat maxsulotlariga bo‘lgan iste’mol talablarining tahlili.;

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi agrosanoat majmuasi korxonalarini iqtisodiy faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti agrosanoat majmuasi korxonalarini rivojlantirish asosida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli yondashuv, mantiqiy fikrlash, ekspert baholash, taqqoslama tahlil, vertikal va gorizontal tahlil, jadval, statistik kuzatuv, dinamika qatorlari, prognozlash, iqtisodiy-matematik usullar va ekonometrik modellar kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra «ishlab chiqarish salohiyati» tushunchasining iqtisodiy mazmuni agrosanoat majmuasi korxonalariga tatbiqan barcha faollik turlarining umumiy qobiliyatları yig‘indisi sifatida tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko‘rsatkichlarini baholash mezonlari tizimi jihatidan takomillashtirilgan;

agrosanoat majmuasi korxonalarida moliyaviy faollik darajasi ($Mf=1,025$), ishlab chiqarish faolligi ($Ichf=1,216$), marketing faolligi ($Marf=1,002$), boshqaruv faolligi ($Bf=1,242$), mehnat faolligi ($Mehf=0,947$)ning maqbul chegaralarida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning yuqori darajasini ta’minlash asoslangan;

agrosanoat majmuasi korxonalarini boshqarishda moliyaviy, ishlab chiqarish, boshqaruv, marketing, mehnat va ehtimoliy faollik turlarini integral baholash asosida ishlab chiqarish salohiyati darajasini «juda yuqori» ($1,2 \leq ICHs$), «yuqori» ($1,02 \leq ICHs < 1,2$), «o‘rtacha xavfli» ($0,55 \leq ICHs < 1,02$), «xavfli» ($0,3 \leq ICHs < 0,55$) va «yuqori xavfli» ($0 \leq ICHs < 0,3$) miqdoriy chegaralari diapazonida baholash asoslangan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi agrosanoat majmuasi korxonalarini ishlab chiqarish salohiyatining asosiy ko‘rsatkichlari hamda ularni boshqarishning samarali vositalariga asoslangan holda 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

agrosanoat majmuasi korxonalarini ishlab chiqarish salohiyatini tashkil etuvchi omillarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur omillarning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi muallif talqini ishlab chiqilgan;

agrosanoat majmuasi korxonalarini ishlab chiqarish salohiyatini tashkil etuvchi faollik darajalarini baholash asosida ishlab chiqarish salohiyatining yuqori darajasini ta’minlash bo‘yicha eng maqbul chegaralar aniqlangan;

agrosanoat majmuasi korxonalarini ishlab chiqarish salohiyatini tashkil etuvchi ko‘rsatkichlar tizimi, ishlab chiqarish salohiyatini baholashning mezon va usullari ishlab chiqilgan;

agrosanoat majmuasi korxonalarini ishlab chiqarish salohiyatini gorizontal va vertikal tahlil asosida baholash orqali ularni oshirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

2030-yilga mo'ljallangan agrosanoat majmuasi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini ifodalovchi prognoz ko'rsatkichlari ssenariylari ishlab chiqilgan;

agrosanoat majmuasi korxonalarini boshqarishda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bilan bog'liq muammolarning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari va xulosalarining ishonchliligi tadqiqotchi tomonidan dissertatsiya ishiga doir xorijiy va mahalliy olimlar olib borgan ilmiy-nazariy, metodologik tadqiqotlari asosida tayyorlanganligi hamda foydalanilgan ma'lumotlar ishonchli rasmiy manbalaridan olinganligi, shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati agrosanoat majmuasi korxonalarini boshqarishda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha nazariy-uslubiy, meyoriy-huquqiy asoslari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan samarali tashkil etishda hamda ushbu tarmoq bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni agrosanoat majmuasi korxonalarini boshqarishni takomillashtirish, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlari sanoatining samaradorligini yanada oshirish, uni tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning innovatsion va ilmiy metodologik yondashuvlari bilan bog'liq muammolarning ilmiy jihatdan yechimlari hamda agrosanoat majmuasi korxonalarini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agrosanoat majmuasi korxonalarini boshqarishda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra «ishlab chiqarish salohiyati» tushunchasining iqtisodiy mazmunini agrosanoat majmuasi korxonalariga tatbiqan barcha faoliyk turlarining umumiy qobiliyatları yig'indisi sifatida tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko'rsatkichlarini baholash mezonlari tizimi jihatidan takomillashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Jasil ekonomika" nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2025-yil 9-iyul, 258-son buyrug'i). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida talabalarda tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko'rsatkichlarini baholash mezonlari tizimi jihatidan takomillashtirilgan «ishlab chiqarish salohiyati» tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoniy yaratilgan;

agrosanoat majmuasi korxonalarida moliyaviy faoliyk darajasi ($Mf=1,025$), ishlab chiqarish faolligi ($Ichf=1,216$), marketing faolligi ($Marf=1,002$), boshqaruv faolligi ($Bf=1,242$), mehnat faolligi ($Mehf=0,947$)ning maqbul chegaralarida ishlab

chiqarish salohiyatidan foydalanishning yuqori darajasini ta'minlash taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining agrar, suv xo'jaligi, tabiatni muhofaza qilish va ekologiya masalalari qo'mitasi faoliyatiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining agrar, suv xo'jaligi, tabiatni muhofaza qilish va ekologiya masalalari qo'mitasining 2025-yil 15-avgustdagi 06-06/527-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyatga joriy etilishi natijasida agrosanoat majmuasi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini tarkibini tashkil etuvchi omillarning vazn ko'rsatkichlarini belgilanishi imkonи yaratilgan;

agrosanoat majmuasi korxonalarini boshqarishda moliyaviy, ishlab chiqarish, boshqaruv, marketing, mehnat va ehtimoliy faollik turlarini integral baholash asosida ishlab chiqarish salohiyati darajasini «juda yuqori» ($1,2 \leq \text{ICHs}$), «yuqori» ($1,02 \leq \text{ICHs} < 1,2$), «o'rtacha xavfli» ($0,55 \leq \text{ICHs} < 1,02$), «xavfli» ($0,3 \leq \text{ICHs} < 0,55$) va «yuqori xavfli» ($0 \leq \text{ICHs} < 0,3$) miqdoriy chegaralari diapazonida baholash taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining agrar, suv xo'jaligi, tabiatni muhofaza qilish va ekologiya masalalari qo'mitasi faoliyatiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining agrar, suv xo'jaligi, tabiatni muhofaza qilish va ekologiya masalalari qo'mitasining 15-avgustdagi 06-06/527-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyatda joriy etilishi natijasida agrosanoat majmuasi korxonalari ishlab chiqarish salohiyati holati va resurslar qo'shimcha o'sish sur'atining iqtisodiy samaradorligini baholash natijalari aniqlilik darajasining 1,38 baravarga oshishiga erishilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi agrosanoat majmuasi korxonalari ishlab chiqarish salohiyatining asosiy ko'rsatkichlari hamda ularni boshqarishning samarali vositalariga asoslangan holda 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining agrar, suv xo'jaligi, tabiatni muhofaza qilish va ekologiya masalalari qo'mitasi faoliyatiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining agrar, suv xo'jaligi, tabiatni muhofaza qilish va ekologiya masalalari qo'mitasining 15-avgustdagи 06-06/527-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyatda joriy etilishi natijasida agrosanoat majmuasi korxonalari ishlab chiqarish salohiyati ko'rsatkichlarini prognozlashtirish amaliyotining takomillashishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyadan o'tkazilganligi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta maqola (shundan 5 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda), xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjuman to'plamlarida 6 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MA’ZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflab berilgan, O‘zbekiston Respublikasida fan va texnikaning ustuvor vazifalariga muvofiqligi ko‘rsatib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Agrosanoat majmuasi tizimini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida agrosanoat majmuasi tizimini boshqarishning nazariy asoslari, agrosanoat majmuasi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar hamda ishlab chiqarish salohiyatini baholash uslubiyotini takomillashtirish asosida agrosanoat majmuasi korxonalarini boshqarish asoslari o‘rganilgan.

Bugungi kunda raqobat muhiti kuchayib, O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga (JST) qo‘silishi, yagona Yevropa-Osiyo iqtisodiy va bojxona makonining shakllanishi, davlat organlari, ilmiy jamoatchilik va biznesning ustuvor vazifasi - agrosanoat majmuasi sohasini barqaror rivojlantirish uchun institusional ta’minalashning yangi mexanizmlari va vositalarini topish bo‘lib hisoblanadi. Agrosanoat majmuasi tizimlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik va amaliy asoslarini ishlab chiqish va aniqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu tizimlar milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va oziq-ovqatning importdan mustaqilligi, tarmoqlararo va hududlararo hamkorlikni takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “agrosanoat majmuasi” tushunchasi avvalgi ma’noda deyarli ishlatilmay qolgan. Hozirda agrosanoat majmuasini boshqarish davlatning bu jarayondagi roli va o‘mining o‘zgarishiga muvofiq prinsipial yangi bosqichga o‘tmoqda. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish va davlat-xususiy hamda munitsipal-xususiy sherikchilikning rivojlanishi agrosanoat majmuasining yangi holati, tuzilmasi va shaklini turli tarmoq va hududlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa asosida qidirishni talab qilmoqda.

Ishlab chiqarish jarayonlarini ta’minalash manbalarini aniqlash, innovatsion texnologiyalar sohasidagi yangi yo‘nalishlarni aniqlash va agrar iqtisodiyotdagi institusional muhitning evolyusiyasini kuzatish natijasida agrosanoat majmuasini samarali rivojlantirish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar va amaliy yechimlarning paydo bo‘layotganligini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining zamonaviy sharoitda samarali rivojlanishi nazariyasining genezisi, uning bosqichlari, paradigmalari va institutsional muhit evolyutsiyasining elementlari 1-jadvalda keltirilgan.

Agrosanoat majmuasi korxonalari ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish barcha mavjud salohiyat turlarini, jumladan ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, marketing, boshqaruv va ishlab chiqarish faolligi turlarini boshqaruv tamoyillari, funksiyalari va shakllari asosida tashkil etish demakdir.

Agrosanoat majmuasi korxonasi ishlab chiqarish salohiyati tarkibiy qismlarini biz tomonidan taklif etilgan o‘rtacha o‘sish sur’ati indeksi asosida baholash optimal mahsulot ishlab chiqarish miqdorini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga

korxonalarining zararsizlik nuqtalarini aniqlash va prognoz qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining zamonaviy sharoitda rivojlanish bosqichlari⁷


Bosqichlar	Xususiyatlar	Institutsional muhit evolyutsiyasining elementlari
I bosqich 1917-1991 yy. Mustaqillikkacha bo‘lgan davr	Kollektivlashtirish, yarlarni o‘zlashtirish, sug‘orish tizimlarining yaratilishi va qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini to‘liq davlat nazoratiga o‘tkazish.	Irrigatsiya va melioratsiya ishlarining kuchaytirilishi, qishloq xo‘jaligi sanoati o‘sishi lekin ko‘p tarmoqli rivojlanishning cheklanganligi.
II bosqich 1991-2000 yy. Mustaqillikdan keyingi dastlabki davr	Bozor-ijtimoiy transformatsiya va agrosanoat majmuasi infratuzilmasini o‘zgartirish.	Kolxoz-sovxozi tizimini tugatish, dehqon xo‘jaliklari va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, davlatning aralashuvini cheklash va xususiy biznesga imkoniyat yaratish, narxlarni liberallashtirish va boshqalar.
III bosqich 2000-2006 yy. Agrosanoatda islohotlar va diversifikatsiya davri	Ma’muriy islohotlar doirasida davlat institutlarini tiklash.	Qishloq xo‘jaligining muayyan jihatlarida davlat dasturlarini amalga oshirish (yerni muhofaza qilish, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va boshqalar), bojxona tartib-qoidalarini tiklash va ayrim oziq-ovqat mahsulotlari importini cheklash va boshqalar.
IV bosqich 2006-2016 yy. Agrar siyosatni davlatning ustuvorligi davri	Agrar siyosatni davlatning ustuvor loyihasi sifatida shakllantirish.	Agrosanoat majmuasini boshqarishda strategik rejalashtirish usullarini keng joriy etish, agrosanoat majmuasining samarali rivojlanishining asosiy parametrlarini va ularga erishish choralarini belgilash.
V bosqich 2016 yildan hozirgacha. Zamonaviy rivojlanish davri	O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda samarali rivojlanishini ta’minlash	Agrosanoat majmuasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, mahsulotlarni import qilishni kamaytirish, qishloq hududlarini barqaror rivojlanirish.

Agrosanoat majmuasi korxonalari ishlab chiqarish salohiyati tarkibiy qismlari sifatida moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing, mehnat, boshqaruv va ehtimoliy faollik turlari biz tomonidan shakllantirilgan (1-rasmga qarang). Agrosanoat majmuasi korxonasi ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish zarurati mavjud salohiyat turlaridan samarali foydalanishda sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatishni talab qiladi.

Shunday qilib, “ishlab chiqarish salohiyati” tushunchasini aniqlash bo‘yicha klassik qarashlarni inobatga olgan holda, agrosanoat majmuasi korxonasining ishlab chiqarish salohiyati tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishni taklif etamiz. Bizningcha, korxonaning ishlab chiqarish salohiyati - bu barcha mavjud faollik turlari, jumladan ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, marketing, boshqaruv va

⁷ Adabiyotlar sharhi asosida muallif tomonidan tuzilgan

ehtimoliy faolliklarning umumiyligi qobiliyatlarini yig'indisidir. Bu esa agrosanoat majmuasi korxonasi tashqi muhitga bog'liq holda o'zaro ta'sir jarayonida tayyor qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan bozor ehtiyojlarini aniqlash va qondirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish asosida korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash qobiliyatidir. Yuqoridaqilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, uslubiy yondashuvga ko'ra faqat mavjud imkoniyat va qibiliyatlar yig'indisi sifatida talqin qilinuvchi "ishlab chiqarish salohiyati" tushunchasining mazmuni ehtimoliy faollikning mavjudligi ham hisobga olingan holda, agrosanoat majmuasi korxonasiga tatbiqan faoliyat samaradorligi va rivojlanishi tavsifi, tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko'rsatkichlarini baholash mezonlari tizimi, barcha mavjud faollik turlari umumiyligi qobiliyatlarini yig'indisi sifatida qaralishi lozim.



1-rasm. Agrosanoat majmuasi korxonalari ishlab chiqarish salohiyati tarkibi⁸

Bundan tashqari, agrosanat majmuasi korxonalari boshqaruvini samarali tashkil etish uchun mazkur turdag'i korxonalarning barcha turdag'i iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish lozim. Shunday ekan, korxona ishlab chiqarish

⁸ Muallif tomonidan tuzligan

salohiyatini belgilovchi yagona meyoriy koeffitsiyent mavjud bo‘lishi talab etiladi va ushbu ko‘rsatkichni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lib, ishlab chiqarish salohiyatni tashkil etuvchi barcha ko‘rsatkichlarning umumiy vaznlangan integral koeffitsiyentlari orqali ifodalanishini lozim:

$$IChs = \sum_{i=1}^n \omega_i K_i , \quad (1)$$

bu yerda, K_i lar koeffitsiyentlar, $\forall i = \overline{1, n}$ uchun $\omega_i > 0$ va $\sum_{i=1}^n \omega_i = 1$.

Bu ko‘rinishda olingan vaznlangan formula har bir ko‘rsatkichning iqtisodiy ahamiyatini inobatga olgan holda korxona ishlab chiqarish salohiyatini baholaydi. Natijada bu korxona qaysi yo‘nalishda kuchliroq yoki zaifroq ekanini aniqlashga imkon beruvchi integral bahoni beradi. Yuqoridagi (1)ni e’tiborga olib biz korxona ishlab chiqarish salohiyatini belgilovchi yagona meyoriy vaznlangan integral koeffitsiyentni quyidagicha aniqladik:

$$IChs = \omega_1 Mf + \omega_2 Ichf + \omega_3 Marf + \omega_4 Mehf + \omega_5 Bf + \omega_6 Ef \quad (2)$$

bu yerda,

$IChs$ – agrosanoat majmuasi korxonasining ishlab chiqarish salohiyati koeffitsiyenti;

Mf – agrosanoat majmuasi korxonasining moliyaviy faolligi koeffitsiyenti;

$Ichf$ – agrosanoat majmuasi korxonasining ishlab chiqarish faolligi koeffitsiyenti;

$Marf$ – agrosanoat majmuasi korxonasining marketing faolligi koeffitsiyenti;

$Mehf$ – agrosanoat majmuasi korxonasining mehnat faolligi koeffitsiyenti;

Bf – agrosanoat majmuasi korxonasining boshqaruv faolligi koeffitsiyenti;

Ef – agrosanoat majmuasi korxonasining ehtimoliy faolligi koeffitsiyenti;

ω_i – vazn.

Mazkur formula asosida korxonaning ishlab chiqarish salohiyatining umumiy yagona qiymati hosil qilinadi va ushbu ko‘rsatkich mazkur korxonaning iqtisodiy holati hamda iqtisodiy rivojlanish imkonini belgilab beradi.

Dissertatsiyaning “**Qoraqalpog‘iston Respublikasi agrosanoat majmuasi rivojlanishi va korxonalar faoliyati samaradorligi tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlanishi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiy va agrosanoat majmuasi rivojlanishi ko‘rsatkichlari tahlili amalga oshirilgan va shu bilan birga agrosanoat majmuasi korxonalari faoliyati samaradorligini vertikal va gorizontal tahlil asosida baholash amalga oshirilgan.

Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining iqtisodiy rivojlanishi tez sur’atlarda amalga oshayotganligi ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotida jumladan, yalpi ichki mahsulotdagi o‘rni yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Biz tomondan mazkur tarmoqdagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda vertikal hamda gorizontal tahlil usullaridan foydalilanilgan. 2-jadval ma’lumotlaridan shuni aytish mumkinki, o‘rganilayotgan 2014-2024 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ining

o'sishi kuzatilgan va o'rtacha o'sish koeffitsiyenti 1,20 ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin.

2-jadval

Qoraqalpog'ston Respublikasining asosiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari⁹

Yillar	2014	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM (mlrd. so'm)	5433,8	18761,0	23392,7	25523,4	29738,2	35541,6	39430,3	45 658,5
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd. so'm)	2659,3	6995,5	8769,3	10532,2	12340,9	14374,0	16390,8	17970,7
Sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd. so'm)	1717,2	10 911,9	12 736,1	13 981,3	16 630,4	17624,7	17791,1	24 598,3
Transport va aloqa (mlrd. so'm)	122,0	380,3	399,7	434,3	478,5	573,9	661,4	4265,3
Xizmatlar sohasi (mlrd. so'm)	2 148,1	4 600,2	5 671,8	6 520,3	8 458,4	10 595,3	12 875,6	28820,8
Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	1 053,5	2 182,7	3 315,4	3 992,5	4 480,6	5 272,4	5 315,9	6 850,8
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida bandlar soni (ming kishi)	102,6	155,5	155,7	147,5	137,5	136,3	157,6	166,8

O'z navbatida bu shuni anglatadiki, ushbu davrda mamlakatda YaIM o'rtacha o'sish koeffitsiyenti ham 1,22 ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin. Qolaversa ushbu o'rganilayotgan davrda barcha ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasining umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'ining asosiy rivojlanish ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, bunda mintaqaga eksport qilingan va import qilingan oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, shuni aytish kerakki hali ham iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholi ko'rsatkichi aynan qishloq xo'jaligi tarmog'ida yuqoriligi saqlanib qolganligini ko'rish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Qoraqalpog'ston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'ining asosiy rivojlanish ko'rsatkichlari¹⁰

Yillar	2014	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida etishtirilgan mahsulot hajmi (mlrd. so'm)	1 717,2	6 995,5	8 769,3	10 532,2	12 340,9	14 374,0	16 390,8	17970,7
Eksport qilingan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi (mln. AQSH dollar)	-	30 747,7	40 660,0	48 249,8	47 456,5	39 963,4	42 068,7	45 678,4
Import qilingan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi (mln. AQSH dollar)	-	11 521,5	15 851,7	27 000,3	29 733,4	28 721,0	42 223,6	46 125,5

Unga ko'ra 2014-2024 yillar davomida mintaqadan eksport qilingan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi o'rtacha o'sish koeffitsiyenti 1,097 ga teng bo'lganligi, mintaqaga import qilingan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi o'rtacha o'sish koeffitsiyenti esa 1,53 ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi agrosanoat majmuasida jumladan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishslash va sotish faoliyati bilan shug'ullanayotgan xo'jalik subyektlari soni 4437 tani tashkil etib

⁹ Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

¹⁰ Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

mazkur korxonalar qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar hisoblanishadi.

Ushbu korxonalar orasidan tadqiqot obyekti sifatida 7 ta korxona tanlab olingan bo‘lib, mazkur korxonalar Qoraqalpog‘iston Respublikasining turli tumanlarida joylashganligi va turli mulkchilik shakllariga ega ekanliklari bilan bir biridan farqlanadi (4-jadval).

4-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yurituvchi agrosanoat korxonalari ko‘rsatkichlari¹¹

№	Joylash-gan joyi	Korxona maqomi	Korxona nomi	Faoliyat turi	Ishlab chiqarish salohiyati					
					Moliyaviy faollig	Ishlab chiqarish faolligi	Marketing faolligi	Mehnat faolligi	Boshqaruva faolligi	Ehtimoliy faollik
1	Mo‘ynoq tumani	Qo‘shma (xorijiy) korxona	“SHUN YUAN” MCHJ QK	Baliq, qisqichbaqasimon-lar va mollyuskalarni qayta ishslash va konservalash	0,62	1,63	2,61	2,48	0,53	1,31
2	To‘rtko‘l tumani	Xususiy korxona	ATANAZAROV ORIFJON” XK	Go‘sht va go‘sht mahsulotlari ulgurji savdosи	1,16	0,81	0,64	1,35	0,62	0,91
3	To‘rtko‘l tumani	Oilaviy korxona	“TO‘RTKO‘L-TUPROGI” OK	Mevalar va sabzavotlarni qayta ishslash va konservalashning boshqa turlari	1,01	0,94	0,61	1,12	0,75	0,73
4	Qorao‘zak tumani	Mas’uli-yati cheklangan jamiyat	“QARAOZEK BIYDAY KLASTER” MCHJ	Donli ekinlar (sholdidan tashqari) etishtirish	0,67	1,14	0,72	1,27	0,78	0,89
5	Qo‘ng‘irot tumani	Mas’uliyyati cheklangan jamiyat	“KUNGRAD RICE CLUSTER” MCHJ	Donli ekinlar (sholdidan tashqari) etishtirish	0,54	1,21	0,63	0,98	0,61	0,66
6	Kegeyli tumani	Aksionerlik jamiyat	“XALQABAD PAXTA TOZALASH” AJ	Paxta tolalarini tayyorlash va yigirish	0,48	0,58	0,54	0,87	0,54	0,67
7	Sho‘manay tumani	Mas’uliyyati cheklangan jamiyat	“ISLOMBEK DO`SCHANOV AGROFIRMA” MCHJ	Donli ekinlar (sholdidan tashqari) etishtirish	0,58	0,72	1,84	0,99	0,41	0,51

Ushbu korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatini biz tomonidan taklif etilgan uslubiyot asosida tahlil qilinib ushbu korxonalarning ishlab chiqarish salohiyati ko‘rsatkichlari tahliliy hisoblangan. Mazkur jadval ma’lumotlari tahlilini turli mulkchilik shakllari bo‘yicha agrosanoat majmuasi korxonalarining moliyaviy faolligi o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyentlari biz tomonidan aniqlandi. Tahlil natijasi bo‘yicha shuni ko‘rish mumkinki, “SHUN YUAN” MCHJ QK agrosanoat majmuasi korxonasi moliyaviy faolligi o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyenti 0,60 teng bo‘lgan bo‘lsa, “ISLOMBEK DO`SCHANOV AGROFIRMA” MCHJ agrosanoat majmuasi korxonasining moliyaviy faolligi o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyenti 0,56 teng bo‘lgan. O‘tkazilgan bunday tahlil bo‘yicha ham aytish mumkinki, mazkur korxonalar moliyaviy faolligi o‘rtacha o‘zgarish integral koeffitsiyentlari bir

¹¹ Statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

muncha past bo‘lib bu ko‘rsatkich o‘z navbatida 2020-2021 yillar oralig‘ida sodir bo‘lgan mamlakatimizdagi pandemiya hodisasi bilan bog‘liq.

O‘rganilayotgan jadvalda “SHUN YUAN” MCHJ QK va “ISLOMBEK DO`SCHANOV AGROFIRMA” MCHJ agrosanoat majmuasi korxonalarining 2019-2023 yillardagi boshqaruv, ishlab chiqarish va marketing faolliklari ko‘rsatkichlari bo‘yicha koeffitsiyentlari keltirilgan (5-jadval).

5-jadval

Agrosanoat majmuasi korxonalarining boshqaruv, ishlab chiqarish va marketing faolliklari koeffitsiyent ko‘rsatkichlari¹²

№	Ko‘rsatkichlar nomi	2019 yil		2020 yil		2021 yil		2022 yil		2023 yil		2024 yil		O‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyenti		
		«SHUN YUAN» MCHJ QK	“ISLOMBEK DO`SCHANOV AGROFIRMA” MCHJ	«SHUN YUAN» MCHJ QK	«ISLOMBEK DO`SCHANOV AGROFIRMA» MCHJ	«SHUN YUAN» MCHJ QK	«ISLOMBEK DO`SCHANOV AGROFIRMA» MCHJ	«SHUN YUAN» MCHJ QK	«ISLOMBEK DO`SCHANOV AGROFIRMA» MCHJ	«SHUN YUAN» MCHJ QK	«ISLOMBEK DO`SCHANOV AGROFIRMA» MCHJ	«SHUN YUAN» MCHJ QK	«ISLOMBEK DO`SCHANOV AGROFIRMA» MCHJ			
1.Boshqaruv faolligi:																
1.1	Foydalilik koeffitsiyenti	1,14	4,3	0,64	0,09	13,75	-6,04	0,93	-0,23	0,08	-0,45	1,1	-0,3	3,29	-0,49	
1.2	Faoliyatning manfaatliligi koeffitsiyeti	0,07	1,09	1,03	0,77	3	0,68	0,42	2,43	1,02	0,54	1,05	0,8	1,09	1,08	
1.3	Ishchi va xodimlar real daromadi koeffitsiyenti	1,05	1,25	0,97	1,29	1,12	0,41	1,07	2,08	1,02	1,27	1,01	1,08	1,03	1,24	
1.4	Ishchi va xodimlarning ishdan bo‘shatilganlik koeffitsiyenti	1,13	1,7	0,97	0,73	0,95	1,03	1,02	0,37	1	1,15	1,05	1,2	0,99	0,98	
2.Ishlab chiqarish faolligi:															2,6	1,82
2.1	Fond qaytimi koeffitsiyenti	3,68	2,31	9,22	0,39	0,81	0,74	0,94	0,92	2,87	0,1	3	0,5	3,48	0,87	
2.2	Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti	0,92	1,03	1	1,04	1,02	0,74	0,91	0,74	3,23	1,06	3,4	1	1,40	0,90	
2.3	Fond sig‘imi koeffitsiyenti	5,59	0,46	0,13	2,75	7,76	1,41	1,11	1,13	0,07	12,78	0,05	13,69	2,91	3,69	
3.Marketinq faolligi:															2,46	0,98
3.1	Bozor ulushi koeffitsiyenti	1,02	0,52	0,37	2,02	3,37	0,77	1,09	1,02	10,61	1,02	10,8	1,02	3,27	1,05	
3.2	Tovarlarning realizatsiya koeffitsiyenti	1,02	1,02	0,37	1,02	6,73	1,02	0,56	1,02	14,14	1,02	14,54	1,02	4,54	1,00	
3.3	Marketolog xodimlar koeffitsiyenti	1,05	0,61	1,04	0,7	1,03	1,38	0,96	1,02	1,02	1,06	1,05	1,09	1,00	0,93	
3.4	Marketing xarajatlari koeffitsiyenti	0,67	1,05	1,03	1,03	2	0,8	0,66	0,8	0,84	1,06	1,00	1,00	1,02	0,93	

Quyidagi ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil qilish asosida “SHUN YUAN” MCHJ QK agrosanoat majmuasi korxonasining boshqaruv faolligi o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyenti 1,6 bo‘lgan bo‘lsa “ISLOMBEK DO`SCHANOV AGROFIRMA” MCHJ agrosanoat majmuasi korxonasining boshqaruv faolligi o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyenti ham 0,70 bo‘lgan.

Shu bilan birga “SHUN YUAN” MCHJ QK agrosanoat majmuasi korxonasining ishlab chiqarish va marketing faolliklari o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyentlari 2,6 va 2,46 ko‘rsatkichga teng bo‘lgan bo‘lsa, mos ravishda

¹² Statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

“ISLOMBEK DO`SCHANOV AGROFIRMA” MCHJ agrosanoat majmuasi korxonasining ishlab chiqarish va marketing faolliklari o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyentlari ham 1,82 va 0,98 ko‘rsatkichga teng bo‘lgan. Mazkur ko‘rsatkichlardan ham shuni ko‘rish mumkinki “SHUN YUAN” MCHJ QK agrosanoat majmuasi korxonasining boshqaruv, ishlab chiqarish va marketing faolliklari o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyentlari o‘rganilayotgan davrda biroz yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot jarayonida taklif etilayotgan agrosanoat majmuasi korxonalarining ichlab chiqarish salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat va ehtimoliy faolliklarni kompleks baholash imkonini beruvchi yondashuv ekspertlar e’tiboriga havola qilindi. Ya’ni, mavjud muqobil variantlar ichida biz tomonidan ishlab chiqilgan “Oziq-ovqat agrosanoat majmuasi korxonalarining ichlab chiqarish salohiyatini boshqarishda integral baholash qanchalik samarali?” degan savolga javob topish maqsadida “ekspert baholash” usuli qo‘llanildi.

Mazkur usulning asosiy afzalligi shundaki, iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy ifodalash imkoniyati mavjud bo‘lmagan yoki yetarli darajada bo‘lmaganda, shuningdek, muayyan obyekt yoki hodisaga nisbatan subyektiv fikr shakllantirish zarur bo‘lgan holatlarda ushbu yondashuvga murojaat qilinadi. Natijada, tegishli sohaning malakali mutaxassislar - ekspertlarning mulohazalari asosida tegishli xulosalar ishlab chiqiladi va qarorlar qabul qilinadi.

Ekspertlar odatda o‘z faoliyat sohasi bo‘yicha yetuk mutaxassislar hisoblanib, ular o‘z vakolati doirasida mavjud muammolar yoki jarayonlar yuzasidan tahliliy fikrlar bildiradilar. Ekspert baholash usulining mohiyati shundaki, muammolar ekspertlar tomonidan intuitiv va mantiqiy tahlil asosida baholanadi. Ulardan olingan umumlashtirilgan fikrlar muammoning echimi sifatida qabul qilinadi. Intuitsiya, mantiqiy mulohaza va miqdoriy baholar uyg‘unligidan foydalanish esa muammoni yanada samarali hal etishga imkon beradi.

Ushbu usulni qo‘llash jarayonida, birinchi navbatda, ekspertlarni son jihatdan tanlash va ekspert guruhlarini shakllantirish, ularning malaka darajasini aniqlash, fikrlar bir xillik darajasini o‘rganish, ekspertlardan olingan ma’lumotlarni qayta ishslash va yakuniy qarorlar qabul qilish kabi masalalarga asosiy e’tibor qaratiladi. Amaliyotda ekspertlar soni 7 nafardan 20 nafargacha bo‘lishi maqsadga muvofiq sanalsa-da, ba’zan bu raqam 10 dan 30 gacha yetishi ham mumkin. Ekspertlar sonining haddan tashqari kamligi natijalarning ishonchlilagini pasaytirishi mumkin bo‘lsa, ortiqcha ko‘pligi esa tashkiliy muammolarga sabab bo‘ladi.

Yuqorida amalga oshirilgan agrosanoat majmuasi korxonalarining vertikal va gorizontal tahlillari natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, agrasanoat majmuasi korxonalarida vertikal va gorizontal tahlillarning integral ko‘rsatkichlari asosida moliyaviy faollik darajasi ($Mf=1,025$), ishlab chiqarish faolligi

